



## **BADIIY ASAR UCHUN SARLAVHANING AHAMIYATI**

**Buxoro davlat universiteti  
Filologiya fakulteti  
1-bosqich talabasi  
Rajabova Oydin Sobirovna**

**Annotatsiya.** Adabiy asar – yozuvchi qalbidagi tuyg‘ular, fikrlar va g‘oyalar mujassam topgan ijod mahsulidir. Asar mazmunini o‘quvchiga yanada yorqin ochib beradigan, anglanishini osonlashtiradigan unsurlardan biri – sarlavha. U asarning “kaliti” bo‘lib, o‘quvchi sarlavha orqali asarga kirib boradi, muallifning ruhiyatini sezadi. O‘zbek adabiyotida sarlavhaga o‘ta zukkolik va e’tibor bilan yondashilganini kuzatamiz. Unga asarning umumiy g‘oyasini, syujetini, muallif pozitsiyasini ifodalovchi muhim vosita sifatida qaraladi. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti namunalarida sarlavhaning muhim ahamiyatga egaligi, ularning badiiy va g‘oyaviy yuklamasi haqida tahliliy fikrlar yoritiladi.

**Аннотация.** Литературное произведение – продукт творчества, воплощающий чувства, мысли и идеи писателя. Одним из элементов, который делает содержание произведения более ярким для читателя и облегчает его понимание, является название. Оно является «ключом» к произведению, и через название читатель входит в произведение и чувствует дух автора. Мы наблюдаем, что к названию в узбекской литературе подходят с большой изобретательностью и вниманием. Оно считается важным инструментом, выражающим общую идею, сюжет и авторскую позицию произведения. В данной статье освещается значение названия на примерах узбекской литературы, его художественное и идейное значение.

**Abstract:** A literary – work is a product of creativity that embodies the feelings, thoughts and ideas of the writer. One of the elements that makes the content of the work more vividly revealed to the reader and facilitates its understanding is the title. It is the “key” to the work, and the reader enters the work through the title and feels the author’s spirit. We observe that the title is approached with great ingenuity and attention in Uzbek literature. It is considered an important tool that expresses the general idea, plot, and author’s position of the work. This article sheds light on the importance of the title in examples of Uzbek literature, its artistic and ideological significance.

**Kalit soʻzlar:** Sarlavha, syujet, badiiy obraz, kinoya, badiiy gʻoya, Said Ahmad, Oʻlmas Umarbekov, Shuhrat, Oʻtkir Hoshimov, asar, pozitsiya.

**Kirish.** Sarlavha – badiiy asar kompozitsiyasining eng muhim unsurlaridan biri boʻlib, asarning toʻlaligicha mazmun-mohiyati unda aks etadi. Baʼzida sarlavha orqali asarning umumiy mazmuni va yozuvchining maqsadini bilib olsa boʻladi.

Ayrim yozuvchilar badiiy maqsadlaridan kelib chiqib, sarlavha tanlasalar, aksariyat asarlar yaratilganidan soʻng ijodkorning oʻy-mushohadalari, tahlillaridan keyingina oʻz sarlavhasiga ega boʻladi. Shu shaklda esa sarlavha asarning qahramonlari tilidan, ularning hayotidan, umumiy xususiyati yuzasidan ham qoʻyilishi mumkin. Shuni ham taʼkidlab oʻtish lozimki, asarda sarlavha tanlayotganda uning aniqligi, asar mazmuniga mosligi, shu bilan birga, qisqa, ammo maʼno (mazmun)ga ega boʻlishiga ham eʼtiborni qaratmoq joizdir. Baʼzi asarlarda yozuvchi sarlavhani jumboq tarzida belgilaydi. Bu bilan kitobxon asarni oʻqish mobaynida sarlavhada qanday jumboq boʻlganini tushuna boradi.

**Asosiy qism.** XX asr oʻzbek adabiyotining taniqli nosiri Oʻlmas Umarbekovning “Yoz yomgʻiri” sarlavhali asari oʻquvchini oʻylashga, fikrlashga undovchi nom bilan atalgan. Kitobxonda, albatta, nega aynan “Yoz yomgʻiri”, axir yozda yomgʻir yogʻmaydi-ku degan savol paydo qiladi. Ushbu sarlavha ramziy maʼnoda qoʻllangan, yaʼni odatda yoz fasli – issiq, quyoshli davr hisoblanadi. Yomgʻir esa kutilmagan, ammo jon saqlovchi hodisadir. Shu nuqtayi nazardan, “yoz yomgʻiri” – odam hayotidagi kutilmagan, ammo kerakli yoki umuman hayotni tubdan oʻzgartirib yuboruvchi boʻlishi mumkin. Ushbu asarda Rahim Saidovning ayoli – Munis vafot etgandan soʻng hayoti yozda kutilmagan yomgʻir singari tubdan oʻzgarib ketadi. Yaʼni ayoli Munis qanchalik injiq, boylikka oʻch boʻlsa-da, Rahim Saidov sevgani uchun chidab, barcha imkoniyatlarini qilib berishga harakat qiladi, ammo Munis oʻz manfaati, boylik uchun turmush oʻrtogʻiga ham xiyonat qilish darajasigacha yetib boradi va oʻzining ayanchli oʻlimiga sabab boʻladi. Saidov ayolining vafotidan keyingina uning xiyonatkor va ikkiyuzlamachiligini bilib qoladi va bir onda hayoti tubdan oʻzgarib ketadi. Shu sababli ham, Oʻlmas Umarbekov Rahim Saidovning hayotidan kelib chiqib oʻz asarini “Yoz yomgʻiri” deb nomlagan. Shuningdek, yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, asar qahramonlari tomonidan aytilgan soʻzlar sarlavhaga chiqarilishi mumkin. Jumladan, Shuhratning “Oltin zanglamas”, Oʻtkir Hoshimovning “Tushda kechgan umurlar” asarlari shu siraga mansub.

Shuhratning “Oltin zanglamas” asarining sarlavhasi mohiyatiga keladigan boʻlsak, asarda rayon rahbari va komissar tomonidan Sodiq Qoʻchqorovga nisbatan



”Bizning kishilar – oltin kishilar. Oltin esa zanglamaydi. Hatto shaxsga sig‘inish yillarining rutubatlari ham unga putur yetkazolmaydi. Qahramon Sodiq Qo‘chqorovning qismati bunga yorqin misol bo‘la oladi. U butun aql-u idroki, mehr-u sadoqatini eng og‘ir kunlardayoq vatan yo‘liga bag‘ishlay bildi. U doim biz bilan birga, biz uni unutmamiz” jumllarida sarlavhaning to‘g‘ri tanlov bo‘lganligi va Sodiqning tengsiz oltinga nisbatlangani asar qahramonlari tomonidan aytib o‘tilgandir.

Bundan tashqari, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida ham Rustam Shomatovning otasi tomonidan: “O‘ylab qarasam, o‘tgan umrim umr emas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichgan-u tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib, o‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Mana endi, uyg‘onib, yonverimga qarasam, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan. Ushbu jumllardan ko‘rinadiki, umrning o‘tishi go‘yoki tush singari shiddat bilan kechadi. Haqiqatan ham, asar sarlavhasi o‘rinli va to‘g‘ri tanlangan, negaki, Rustamning hayoti, umuman olganda, insoniyat hayoti oqar suv kabi qaytmaydi ham, o‘tib ketganini insoniyat sezmaydi ham. Unda kechirilgan yillar azobi, mashaqqati esa inson sabrini sinaydi, irodasini imtihondan o‘tkazadi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ham asarlarida sarlavha tanlashda o‘z mahoratini namoyon eta olgan ijodkor hisoblanadi. Uning “Qorako‘z majnun” hikoyasida birgina hayvon sarlavha darajasida ko‘tarilib, uni insonlar qila olmaydigan sadoqat bilan ifodalaydi. Nega aynan hayvon sarlavhada aks etyapti, chunki bugungi kun bilan bog‘lab qaraydigan bo‘lsak, insonlarda kamayib ketayotgan sadoqat, mehr-oqibat hayvonda mujassamlashtirib yaratilgan xususiyatligi ayni haqiqatdir. Ta‘kidlash joizki, Said Ahmadning barcha asarlari sarlavhasi chuqur ma‘no kasb etadi: “Qoplun”, “Qora ko‘z majnun”, “Bo‘ri ovi” kabi o‘nlab hikoyalarini misol keltirish mumkin. Ularda sadoqat, mehr, ishonch, e‘tiqod singari ma‘naviy qadriyatlar ta‘sirchan aks ettirilgan.

Jumladan, adibning inson qismati turg‘unlik davri qabohatlari fonida tasvirlangan “Jimjitlik” asarida Tolibjonning yoshlik chog‘i o‘tgan qishloqqa “jimjitlik” izlab kelishi voqealari aks etgan. Asar bosh qahramoning boshidan ko‘plab qiyinchiliklarni o‘tkazishi bilan bog‘liq qiziqarli syujet kitobxonni befarq qoldirmaydi. Asar oxirida “Bu joylarga jimjitlik qidirib kelgan Tolibjon dunyo tashvishlaridan, yovuzlar ta‘qibidan, omadsiz o‘tgan umridan qutilib, so‘ngsiz jimjitlik bag‘riga singib ketdi” jumlasini orqali asarning nima sababdan bunday sarlavha ostida nomlanganini bilib olishimiz mumkin. Chunonchi, insoniyat



yaralibdiki, boshdan turli xil sinovlarni o'tkazadi, mashaqqatli umr olovlarida toblanadi. Alal oqibat, bunda inson jimjitlikni, hayoti bir maromda davom etishini istab qoladi. Asarda xuddi shunday qahramon bu – Tolibjon. U taqdir taqozisi bilan o'zi tug'ilib o'sgan yurtida emas aksincha, Yetimqishloqdan uzoqda yashashiga to'g'ri keladi, birdan oilasidan ajraladi va bu shaharda yashashni lozim topmay qishlog'iga jimjitlikni xohlab qaytganida, taqdiri unga yanada og'irroq mashaqqatlarni ro'baro' qiladi. Yozuvchining mohirona tanlangan mazkur asar sarlavhasini turli xil ma'noda talqin qilish mumkin. Asar sirtdan tinch, sokin ko'ringan Sho'ro davrining ichki dramalari, tuzum inqirozining butun keskinligi, shiddati bilan ko'rsatilgan, turg'unlik davri illatlari fosh etilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Xulosa.** Sarlavha – bu oddiy bir nom emas, u asarning poetik mohiyatini, asosiy mazmunini anglatadigan birinchi eslatmadir. O'zbek adabiyotida sarlavhalar muallifning estetik qarashi, adabiy uslubi va ijtimoiy pozitsiyasining bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yaxshi sarlavha o'quvchini o'yantiradi, asarga jalb qiladi va uning ichki imkoniyatlarini ochishda ochqich vazifasini o'taydi. Shu bois, sarlavha yozuvchining ijodiy kuchi va didining yorqin ko'rinishidir. Demak, o'zbek asarlaridagi sarlavhalarning poetik xususiyati quyidagilarda ko'rinadi: birinchidan, ijodkor uslubi, dunyoqarshi, badiiy niyati va so'z qo'llash mahoratida, ikkinchidan, ijtimoiy hayot muammolarini tasvirlashda o'z ifodasini topadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'lmas Umarbekov. Yoz yomg'iri. – T.: Sharq, "Turon zamin" nashriyoti 2023. – 158 b.
2. Said Ahmad. Qora ko'z majnun. – T.: Sharq, O'zbekiston 2001. – 90-107 b.
3. Said Ahmad. Jimjitlik. – T.: Sharq, "Sano-standart" 2021. – 380 b.
4. Shuhrat. Oltin zanglamas. – T.: Sharq, "Zukko kitobxon" 2023. – 509 b.
5. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – T.: Sharq, Nurli dunyo 2022. – 284 b.
6. Orokova N. Image of flowers in classical lyrics //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 11. – C. 410-416.
7. Yoriyevna O. N. Yangi o'zbek she'riyatida qo'llangan daraxt obrazlari ifodasida an'ana va novatorlik //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 386-391.

8. Yoriyevna O. N. et al. Zamonaviy o'zbek she'riyatida floristik obrazlar talqini //Scientific approach to the modern education system. – 2024. – T. 2. – №. 24. – С. 26-32.
9. O'roqova Nafosat Yoriyevna. (2024). Zamonaviy she'riyatda lola va lolaqizg'aldoq obrazlarining ramziy ifodalari. Hamkor Konferensiyalar, 1(2), 223–228. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/167>
10. O'roqova, N. (2024). Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 193-199.
11. O'roqova, N. (2024). Sadridin Ayniy uslubiga doir chizgilar. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 47(47). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/12188](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188)